



OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Sattorova Muhammarram Abdurazzoqovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi
o'qituvchisi, yu.f.n.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib, shaxslar o'rtasidagi nikoh, qon-qardoshlik, farzandlikka olish yoki vasiylik kabi munosabatlar asosida shakllanadigan ijtimoiy birlikdir. Nikoh oilaning asosi hisoblanadi, chunki u jamiyatda qonuniy tartib va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Oilaning mavjudligi jamiyatdagi madaniy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatları, nikoh tuzish va ajratish tartiblari, bolalar huquqlari va oilaviy nizolarni hal qilish qoidalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, oila, nikoh, davlat, jamiyat, qonun, yosh avlod, tarbiya, nikoh tuzish, oilaviy munosabatlar, milliy an'analar, qon-qardoshlik, farzandlikka olish, vasiylik, qadriyat.

Mamlakatimiz Kostitutsiyasining 76 moddasiga muvofiq oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib, shaxslar o'rtasidagi nikoh, qon-qardoshlik, farzandlikka olish yoki vasiylik kabi munosabatlar asosida shakllanadigan ijtimoiy birlikdir. Oila, avvalo, jamiyatning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, uning asosiy vazifasi tarbiya, muhofaza va ijtimoiy qoidalarni avloddan-avlodga yetkazishdan iborat.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasida o'zaro rozilikka asoslangan, qonunan tartibga solinadigan va jamiyat tomonidan tan olinadigan munosabatdir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarining ixtiyoriy roziligidiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, nikoh faqat davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyingina qonuniy hisoblanadi. Bu talab oila munosabatlarida yuridik kafolatlarni ta'minlash va oilaviy nizolarning oldini olish uchun joriy etilgan.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Nikoh oilaning asosi hisoblanadi, chunki u jamiyatda qonuniy tartib va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Oilaning mavjudligi jamiyatdagi madaniy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.



Oila va nikoh tushunchalari jahon mamlakatlarining huquqiy tizimlarida turlicha talqin qilinadi, ammo ularning barchasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat tomonidan oila siyosati, uning bazasini mustahkamlash siyosatining olib borilmasligi ijtimoiy institutning boshqa ijtimoiy institutlar qatoridan munosib o`rin ololmasligiga olib kelishi va buning oqibati sifatida oila va nikoh munosabatlariiga putur etkaziladi, yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatilishi mumkin.

Oilanning jamiyatdagi roli quyidagicha yoritilishi mumkin:

Oila bolalarning ilk tarbiyasi, axloq-odob, madaniy qoidalar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o`ynaydi. Oila – shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi birinchi bo`g`indir.

Mustahkam oila munosabatlari jamiyatning barqarorligini saqlashga yordam beradi. Oilanning mustahkamligi jinoyatchilikning kamayishi, ijtimoiy himoyaning kuchayishi va boshqa ijobiy ko`rsatkichlarga ta'sir ko`rsatadi.

Oila orqali milliy an'analar, madaniy qiymatlar va ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va avloddan avlodga uzatiladi. Oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish jamiyatda mustahkam huquqiy-ijtimoiy asos yaratishga qaratilgan. Er-xotin, bolalar, qon-qardoshlik asosidagi qarindoshlarning huquq va majburiyatlarini qonun orqali belgilash va kafolatlash. Nikoh va oilaviy munosabatlarda barcha ishtirokchilarining teng huquqlilagini qonun darajasida belgilash. Oila mol-mulkiga doir nizolarni tartibga solish, vasiylik va bolalar huquqlarini himoya qilish.

Davlat tomonidan nikohning ro`yxatdan o`tkazilishi va ajrim jarayonida qonun talablariga rioya qilinishi ta'minlanadi. Bolalarning shaxsiy huquqlari, ta'lif olish va ijtimoiy himoyadan foydalanishini kafolatlash, qonunchilik orqali oilaviy munosabatlarda barqarorlik va adolatli munosabatlarni shakllantirish.

Shunday qilib, oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat oila a'zolari, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun huquqiy barqarorlik va ijtimoiy himoyaning asosiy omilidir.

O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatları, nikoh tuzish va ajratish tartiblari, bolalar huquqlari va oilaviy nizolarni hal qilish qoidalari belgilangan.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning yana bir muhim hususiyati – jamiyatning asosi bo`lgan kuchli oila tizimidir. O`zbekistonda nikohdan o`tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo`yicha eng past darajada. Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko`p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo`lgan g`oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir.



Oilaning bunday o`ziga xos bo`lgan shakli bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma`naviy qadriyatlardan, an`analardan bahramand qilish, shu bilan birga milliy an`analarimizning saqlanishi, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratdi.

O`zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida jamiyatning negizi hisoblangan oilalar borasidagi davlat siyosatining

asosiy maqsadi, yo`nalishlari va tamoyillarini belgilash orqali oilaga yo`naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-mafkuraviy, iqtisodiy faoliyatning dasturini va oila institutini milliy va umuminsoniy qadriyatlар muvofiqligida mustaqhkamlashning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

So`nggi yillarda oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid qonun hujjatlariga quyidagi yangiliklar kiritildi:

Nikoh yoshini kamaytirish, er-xotinning teng huquqlari va majburiyatlarini yanada aniq belgilash, bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga oid qoidalar kuchaytirildi.

Nikoh shartnomasini tuzish orqali mol-mulk munosabatlarini huquqiy tartibga solish qo`llab-quvvatlash soxasida aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo`yicha ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar o`tkazilmoqda.

Sud organlari orqali ajrimlarniadolatli hal etish mexanizmlari joriy qilindi shuningdek bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida ota-onasi o`rtasidagi mas`uliyatlarni aniqlash tizimi takomillashtirildi.

Oila va nikoh munosabatlari jamiyatning asosiy instituti hisoblanadi, shu sababli ularning huquqiy tartibga solinishi barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent-2023.
2. O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksi - Toshkent-2021.
3. D.Karaxodjaeva. Fuqarolik va oila huquqi. – T. Ilm-Ziyo – 2012.
4. Oila huquqi. Darslik Mualliflar jamoasi – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2017.
5. U.Sharaxmetova. Nikoh va uni huquqiy tartibga solish. Monografiya. TDYuU, 2021.
6. Oila va nikox munosabatlaridan kelib chikuvchi nizolar buyicha sud amaliyoti. – Sudyalar uchun qo`llanma. - O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi – T. 2015.